



JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT

2024-yil 8-aprel

“Maxam-Chirchiq” AJda respublika davlat xavfsizlik xizmati, DXX Chirchiq shahar bo‘limi, “Maxam-Chirchiq” AJ Komplayens boshqarmasi hamkorligida korxonalar ishchi-xizmatchilari ishtirokida “Jaholatga qarshi ma’rifat” mavzusida uchrashuv o‘tkazildi. O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita raisining maslahatchisi Ilhom Marupov qatnashchilarga diniy ekstremizm va terrorizm, “ommaviy madaniyat” hamda ma’naviy tahdidlar kabi salbiy illatlar va uning zararli oqibatlari haqida ma’lumot berdi.



Ma'ruzachi tomonidan yurtimizdagi tinchlik va barqarorlik oliy ne'matligi, har bir millatning ma'naviyatini uning tarixi, urf-odatlari, an'analari, barhayot qadriyatlari tashkil etishi ta'kidlab o'tildi. Tadbir doirasida ishtirokchilarga "Ayol qismati" nomli badiiy film namoyish etildi.

